

TAQLID SO'ZLAR HAQIDA ILMIY QARASHLAR

Homidova Mehriqiy Farmon qizi

Alfraganus universiteti
filologiya va tillarni o'qitish
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
o'f23-28-guruh talabasi

TEL: 91 011 52 03

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17356166>

Annotatsiya: ushbu maqolada taqlid so'z turkumini fanda asoslangan turli qarashlar bilan qo'llanila olish xususiyatiga ega ekanligini va uning turlari haqida fikr yuritilgan. taqlid so'zlarning so'z turkumi sifatida tahlil qilgan olim va olimlarning izlanishlari haqida qiyosiy tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: taqlid, tovushga taqlid, holatga taqlid, tasvir,

Аннотация: в данной статье рассматриваются различные научные подходы к использованию имитационных слов в языке б а также их виды. проведен сравнительный анализ исследований ученых по вопросам классификации имитационных слов как части речи.

Ключовые слова: подражание, подражание звуку, подражание состоянию, описание

Annotation: this article discusses the characteristics of the mimetic word class, which can be applied based on various scientific perspectives, and its types. a comparative anaiyse of the research conducted by scholars on mimetic words as a word class is presented.

Key words: imitation, imitating sound, imitating state, description

Kirish. Ushbu maqolani yozar ekanmiz, avvalambor , taqlid so'zlar mavzusida ilmiy ish olib borgan, olim va olimlarning fikriga nazar solib ketmasak bo'lmaydi. Taqlid so'zlar haqida Rahmatulla Qo'ng'urov, Shavkat Rahmatullayev, Ra'no Sayfullayeva va Bahtiyor Mengliyev, S. Mutallibov, U. Tursunov, J. Muxtorov va boshqa olimlarning munozarali fikrlarida, bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini ko'rib chiqamiz.

Asosiy qism: Taqlid o'zbek tilida bir guruhni tashkil etadi va mustaqil so'z sirasidan o'rin olgan. Buning bir nechta ilmiy asoslari bor.

Birinchidan, turkiy tillarda taqlid miqdoran ko'p va ma'no jihatdan rang-barang.

Ikkinchidan, ulardagi tovush tizimi ma'lum ob'ektiv voqelikdan xabar berib turadi.

Uchinchidan, taqlid gap tarkibida ma'lum bir sintaktik pozitsiya egallaydi.

Taqlid: Ra'no Sayfullayeva taqlidning ayrimi, tovushga taqlidni ifodalasa, ikkinchi bir xili ko'rinish- holatga taqlidni ifodalaydi, deb izohlaydi.

1. Tovushga taqlid, jonivor, narsa va hodisalar paydo qilgan tovushga taqlid qilish natijasida paydo bo'ladi. Tovushga taqlid o'z ichida yana guruhlariga bo'linadi;

a) "Fiziologik tovushga taqlid" bunda, [qah-qah], [xur-xur], [xir-xir], [miyov-miyov].

b) "Fizik tovushga taqlid" bunda, [tap-tup], [taqir-tuqur], [tipir-tipir].

2. Ko'rinish-holatga taqlid, tovushga taqlid so'z eshitish bilan bog'liq hodisa ifodalasa, ko'rinish-holatga taqlid esa ko'rinish bilan bog'liq hodisalarni aks ettiradi. Bu ham o'z o'rnida ;

a) "Harakatni ifodalovchi taqlid" [lik-lik], [dik-dik], [ship-ship].

b) "Tashqi ko'rinishni ifodalovchi taqlid" [mo'lt-mo'lt], [hil-hil].

c) "Yorug'likni ifodalovchi taqlid" [lip-lip], [jimit-jimir].

Ra'no Sayfullayeva va Baxtiyor Mengliyevlarning kitobida taqlidning tuzilishiga ko'ra turlarini jufr va takroriy ko'rinishda beradi.

Rahmatulla Qo'ng'urov taqlid so'zlarni, "tasviriy so'zlar" deb beradi. Uning tasviriy (taqlidiy) so'zlar borasidagi ilmiy kuzatishlar natejasida "O'zbek tilida taqlidiy so'zlar haqida ba'zi munozaralar", "O'zbek tilida taqlidiy so'zlar o'rganilishi haqida", "Tasviriy so'zlarning leksik xususiyatlari haqida", "Hozirgi zamon o'zbek tilida tasviriy so'zlarning semantik klassifikatsiyasi" kabi maqolalari yuzaga kelgan. "Tasviriy so'zlarning umumiy xarakteristikasi" qismida tasviriy so'zlar haqida umumiy fikr bildirib, taqlid so'zlar borasida quyidagi xulosaga keladi:

- a) o'zlarining leksik ma'nosiga ega;
- b) kishida umumiy taassurot hosil qilish darajasiga ko'tara oladi.
- c) o'ziga xos qurilishga, formaga ega;
- d) sodda holda asosan yordamchi fe'llar bilan keladi;
- e) gapda ma'lum bo'lak vazifasini bajarib, boshqa gap bo'laklari bilan munosabatga kirisha oladi. Mana shu xususiyatga ega bo'lgan taqlidni taqlid so'z deb hisoblash mumkin.

R.Qo'ng'urovning "Hozirgi o'zbek tiida o'zgarmaydigan so'zlar" asarida

"Tasviriy so'zlar gapda ifodalangan mazmunga aniqlik, tasviriylik kiritish uchun ishlatiladi. Ularning boshqa vazifasi yo'q. Gapning mazmuniga boshqa bir o'zgartirish kiritmaydi. Shu sababli tasviriy so'zlarni tushirib qoldirsak, uning ma'nosida katta bir o'zgarish yuz bermaydi, balki tasviriylik yo'qoladi xolos" - degan, fikrlarni aytib o'tadi. Tasviriy so'zlar shunchaki tabiat va jamiyat, insonlar va jonivorlar harakati, holati va ovoz chiqarishiga taqlidni ifodalabgina qolmasdan, nutq jarayonida qo'shimcha ma'no ottenkalarini ham ifodalaydi va shu tarzda bu so'zlarning ham ma'no doirasi kengayib boradi degan fikrni ilgari suradi.

Boshqa olimlarning ham taqlid so'zlar haqidagi qarashlari bor. Solih Mutallibov tovushga va holatga taqlid so'zlarni birlashtirib, ularga quyidagicha ta'rif beradi: "Hayvonlar, jonivorlar, qush-qurtlar va odamlar, narsalar harakatidan paydo bo'lgan tovushlarga shartlicha taqlid qilib yasalgan so'zlar tovushga taqlidiy so'zlar deb ataladi". Bu ta'rif taqlidiy so'zlarning barcha xususiyatlarini o'zida jamlashtira olmaydi. Bu ta'rifda holatga taqlid so'zlarga fikr bildirilmagan. Muallifning taqlidiy so'zlar yasaliishi to'g'risidagi fikri ham e'tirozdan xoli emas. Taqlidiy so'zlarning yasaliishi bilan ular boshqa so'z turkumlarining yasaliishini farqlash kerak, ya'ni ularga bir hodisa sifatida qarash yaramaydi. Tovushga taqlid so'zlar tuzilishi asosiga ko'ra ikkiga ayriladi:

a) eshitgan tovushga shartlicha taqlid qilib yasalgan so'zlar: pish-pish uxlamoq, taq-taq yurmoq.

b) narsalar va hodisalar ko'rinishiga shartlicha taqlid qilib yasalgan so'zlar: yalt-yult, lim-lim.

Ko'rinib turibdiki, tasnifdan obrazli so'zlar tovushga taqlid so'zlarning bir turi, uning bir ko'rinishi ekan degan xulosaga kelish mumkin.

U. Tursunov, J. Muxtorovlarning "Hozirgi zamon o'zbek tili. Morfologiya" qo'llanmasida taqlidiy so'zlar qisqa bo'lsada, alohida kategoriya sifatida o'rganilgan. J. Muxtorov taqlidiy so'zlarga quyidagicha ta'rif beradi: "Taqlidiy so'zlar shaxs, predmet va turli jonivorlar tovushining, harakat va holat obrazining tashqi olamdan olgan taqlidi kopiyasidir. Taqlidiy so'zlar turli xildagi ixtiyoriy va ixtiyorsiz tovush va qichqiriqlarni, harakat va holat obrazini bildiradi".

Muallif taqlidiy soʻzlarni ikkiga ajratadi: tovushga taqlidiy soʻzlar va obrazli soʻzlarga ajratgan. U. Tursunov, J. Muxtorov, SH. Rahmatullayevlar tomonidan nashr etilgan “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” asarida esa “Takroriy taqlidiy soʻzlar shu soʻzlarning takrorlanishi asosida tuziladi, bunda fonetik oʻzgarish boʻlishi, soʻz bir necha marta takrorlanishi mumkin, degan fikrlar ilgari surilgan masalan: piqir-piqir, paq-puq, tars-turs.

Xulosa: Taqlid soʻzlar mavzusi haqida Raʼno Sayfullayeva va Baxtiyor Mengliyev, Rahmatulla Qoʻngʻurov, U. Tursunov, J. Muxtorov, Shavkat Rahmatullayev, Solih Mutallibov ilmiy ishlari bilan tanishib chiqdik. Vaholanki biz olimlarning ushbu mavzu doirasidagi fikrlari bildik. Raʼno Sayfullayeva, bilan Rahmatulla Qoʻngʻurovning bu mavzu doirasidagi fikrlari turlicha. Taqlid soʻzlarni Raʼno Sayfullayeva va Baxtiyor Mengliyev bir xil izoh bersada, lekin Rahmatulla Qoʻngʻurov taqlid soʻzlarni, “tasviriy soʻzlar” deb tahlil qiladi va tasviriy soʻzlarni mustaqil soʻz turkumi sifatida oʻziga xos fonetik, leksik, grammatik xususiyatga ega ekanligini taʼkidlab oʻtgan. Aslida bu tor mavzu doirasida boʻlsada, fikrlar turlicha bir-biridan farq qilib turishini kuzatishimiz mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Raʼno Sayfullayeva va b “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” Toshkent-2009. 555-558-bet
 2. Qoʻngʻurov R.” Oʻzbek tilida tasviriy soʻzlar” T-1966
 3. Shavkat Rahmatullayev “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” darslik
 4. U. Tursunov, J. Muxtorov, SH. Rahmatullayev “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” 1-qism
- Internet saytlar
5. www.arxiv.uz